

XII. DEMOGRAFIK HOLAT VA O'RTACHA ISH HAQI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-mart holatiga viloyat doimiy aholisining soni 3 994,8 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 81,4 ming kishiga yoki 2,1 %ga ko'paydi. Shundan, 2 274,3 ming kishi - shahar joylarida (jami aholi sonining 56,9 %i) va 1 720,5 ming kishi - qishloq joylarida (43,1 %i) istiqomat qiladi.

Viloyat hududi va aholi zichligi (2023- yil 1- aprel holatiga)

	<i>tashkil topgan sana</i>	<i>hududi, ming kv. km</i>	<i>doimiy aholi soni, ming kishi</i>	<i>1 kv. km ga aholi zichligi, kishi</i>
Viloyat bo'yicha	15.01.1938	6,759	3 994,8	591,0
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	1877 yil	0,1488	316,4	2126,3
Qo'qon	X asr	0,306	305,0	996,7
Quvasoy	14.06.1954 yil	0,264	99,4	376,5
Marg'ilon	X asr	0,041	247,7	6041,5
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29.09.1926 yil	0,631	224,8	356,3
Qo'shtepa	16.04.1952 yil	0,368	204,7	556,3
Bag'dod	31.12.1964 yil	0,333	229,0	687,7
Buvayda	26.12.1973 yil	0,279	242,7	869,9
Beshariq	29.09.1926 yil	0,774	239,2	309,0
Quva	10.02.1939 yil	0,438	271,7	620,3
Uchko'prik	29.09.1926 yil	0,233	237,4	1018,9
Rishton	09.01.1967 yil	0,307	213,2	694,5
So'x	27.02.1990 yil	0,221	82,3	372,4
Toshloq	12.04.1973 yil	0,243	215,4	886,4
O'zbekiston	17.04.1963 yil	0,543	231,6	426,5
Farg'ona	22.02.1964 yil	0,612	217,8	386,4
Dang'ara	07.12.1970 yil	0,354	173,7	490,7
Furqat	09.04.1992 yil	0,305	125,0	409,8
Yozyovon	27.12.1980 yil	0,407	117,8	289,4

Farg'ona viloyatining ma'muriy-hududiy tashkil topishi 1938-yilning 15-yanvaridan boshlanadi. Hududi 6,8 ming kvadrat kilomertni tashkil etadi yoki mamlakatimiz hududining 1,5 foiziga teng. Viloyatimiz shimoldan Namangan viloyati, sharqdan Andijon viloyati, janub tomondan Qirg'iziston Respublikasining O'sh hamda Batken viloyatlari va g'arbdan Tojikiston Respublikasining Xo'jand viloyati bilan chegaradosh. Viloyatning So'x tumani hamda Farg'ona tumanining Shohimardon va Yordon, Rishton tumanining Cho'ng'ara qishloqlari viloyat, Respublika hududidan tashqarida, Qirg'iziston Respublikasi hududida joylashgan.

Viloyat ma'muriy hududiy bo'linishiga ko'ra 4 ta viloyat miqyosidagi shahar, 15 ta tuman, 5 ta tumanlar tasarrufidagi shaharlar, 197 ta shahar tipidagi posyolkalar, 1 227 ta aholi yashash punktlari hamda 1 062 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridan tashkil topib, ularda **3 994,8** ming nafar aholi istiqomat qiladi. Viloyatning ma'muriy markazi Farg'ona shahri.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog' tizmalari Farg'ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to'sib turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo'tadil. Yozi issiq, iyulning o'rtacha harorati 27,5°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o'rtacha harorati -3°S. Vegetatsiya davri 217 kun, yillik o'rtacha yog'in miqdori 200-250 mm.ni tashkil etadi.


Farg'ona viloyati hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2023- yilning 1- aprel holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %da		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Farg'ona viloyati	3 994,8	2 274,3	1 720,5	102,1	56,2	43,8
<i>shaharlar:</i>						
Farg'ona	316,4	316,4	-	105,2	100,0	-
Qo'qon	305,0	305,0	-	116,9	100,0	-
Quvasoy	99,4	56,0	43,4	102,2	56,3	43,7
Marg'ilon	247,7	247,7	-	101,8	100,0	-
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	224,8	169,1	55,7	102,1	75,2	24,8
Qo'shtepa	204,7	78,6	126,1	102,6	38,4	61,6
Bag'dod	229,0	117,1	111,9	102,1	51,1	48,9
Buvayda	242,7	112,0	130,7	102,3	46,1	53,9
Beshariq	239,2	83,9	155,3	101,7	35,1	64,9
Quva	271,7	125,8	145,9	101,8	46,3	53,7
Uchko'prik	237,4	44,9	192,5	99,5	18,9	81,1
Rishton	213,2	136,1	77,1	101,9	63,8	36,2
So'x	82,3	52,1	30,2	101,9	63,3	36,7
Toshloq	215,4	50,5	164,9	102,2	23,4	76,6
O'zbekiston	231,6	106,0	125,6	93,7	45,8	54,2
Farg'ona	217,8	134,6	83,2	98,1	61,8	38,2
Dang'ara	173,7	38,4	135,3	95,6	22,1	77,9
Furqat	125,0	29,7	95,3	102,2	23,8	76,2
Yozyovon	117,8	70,4	47,4	102,3	59,8	40,2

Shaharlar ichida eng ko‘p aholi Farg‘ona shahrida 316,4 ming kishi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 %ga o‘sgan) va tumanlarda eng ko‘p aholi Quva tumanida bo‘lib 271,7 ming kishini tashkil qiladi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 %ga o‘sgan).

Hududlar kesimida doimiy aholi soninig taqsimlanishi

(2023- yil 1-aprel holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)




Yanvar-mart oylarida viloyat bo‘yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

<i>Ko‘rsatkichlar</i>	<i>ming kishi</i>		<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>
Tug‘ilganlar	22,0	23,4	22,8	25,4
O‘lganlar	4,3	4,3	4,5	4,7
Nikohlar, <i>mingta</i>	5,3	4,5	5,5	8,1
Ajralishlar, <i>mingta</i>	1,2	1,7	1,2	1,4

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti

(2023- yilning yanvar-mart holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille))



Tugʻilish darajasi. 2023-yilning yanvar–mart oylari tugʻilganlar soni 23,4 ming kishini tashkil etdi va 2022-yilning shu davriga (22,0 ming kishi) nisbatan 1,4 ming kishiga koʻpaydi, shunga mos ravishda tugʻilish koeffitsiyenti 25,4 promilleni tashkil qildi.

Tugʻilish darajasining koʻpayishi viloyatning Dangʻara tumanida 23,8 dan 30,4 promille, Bagʻdod tumanida 22,9dan 26,3 promillega, Quvasoy shahrida 22,3 dan 23,4 promillega, Margʻilon shahrida 23,4 dan 26,2 promillega kuzatildi.


O‘lim darajasi. 2023-yilning yanvar-mart oylarida o‘lganlar soni **4264** kishini tashkil qildi va 2022- yilning shu davriga (**4330** kishi) nisbatan 66 kishiga kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil qildi (2022- yil yanvar-mart oylarida **4,5** promille).

O‘lganlar sonining ko‘payishi viloyatimizning ba’zi shahar va tumanida yuz bergan bo‘lib, eng ko‘p o‘lim O‘zbekiston tumanida 312 kishidan 5,4 promille, Quva tumanida 287 kishidan 4,1 promillega kuzatildi, Beshariq tumanida 238 kishidan 5,0 promille, Farg‘ona tumanida 241 kishidan 4,9 promille, Qo‘shtepa tumanida 228 kishidan 4,5 promille.

O‘lganlar umumiy sonining **61,5** %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **6,7** %i o‘sma kasalliklaridan, **4,1** %i ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, **5,0** %i baxtsiz hodisadan, **6,2** %i nafas olish organlari kasalliklaridan vafot etgan.

O‘lganlar umumiy sonining tarkibiy tuzilishi

(2023- yilning 1-aprel holatiga, %da)



Nikohlar va ajralishlar. 2023-yilning yanvar-mart oylari shahar, tuman hokimliklarining FHDYo bo‘limlarida **4486** ta nikohlar va **1662** ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 8,1ta nikoh (2022 yilning tegishli davrida 5,5 ta) va 1,4 ta ajralishlar (2022- yilning tegishli davrida - 1,2) to‘g‘ri keladi.

Yanvar-mart oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(birlikda)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>
Viloyat	5342	4486	1172	1662
<i>shaharlar:</i>				
Fargʻona	332	346	178	183
Qoʻqon	352	329	123	157
Quvasoy	111	88	33	54
Margʻilon	233	183	70	87
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	316	287	56	74
Qoʻshtepa	202	157	64	79
Bagʻdod	305	241	60	99
Buvayda	315	237	58	75
Beshariq	434	417	38	94
Quva	383	292	62	83
Uchkoʻprik	302	238	49	107
Rishton	340	307	57	99
Soʻx	239	225	23	29
Toshloq	204	188	41	61
Oʻzbekiston	394	292	68	93
Fargʻona	332	239	83	96
Dangʻara	259	211	60	74
Furqat	191	120	22	64
Yozyovon	98	89	27	54

Migratsiya. Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyatga koʻchib kelganlar soni **2101** kishini, shu davr mobaynida koʻchib ketganlar soni esa **2745** kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldigʻi minus **644** kishiga (2022-yilning shu davrida - minus **604** kishi) teng boʻldi. Eng katta minus qoldiqlar Margʻilon shahri (minus **225**) va Qoʻqon shahrida (minus **266**) kuzatildi.


Yanvar-mart oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldosi</i>	
	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>
Viloyat	2411	2101	3015	2745	-604	-644
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	737	951	521	402	216	549
Qo'qon	153	15	290	281	-137	-266
Quvasoy	142	93	104	82	38	11
Marg'ilon	30	8	220	233	-190	-225
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	31	38	120	93	-89	-55
Qo'shtepa	178	124	116	98	62	26
Bag'dod	30	5	100	63	-70	-58
Buvayda	84	43	131	80	-47	-37
Beshariq	58	77	171	166	-113	-89
Quva	38	62	148	178	-110	-116
Uchko'prik	119	39	167	112	-48	-73
Rishton	59	54	96	129	-37	-75
So'x	16	30	10	7	6	23
Toshloq	104	77	102	102	2	-25
O'zbekiston	133	94	199	135	-66	-41
Farg'ona	193	133	205	397	-12	-264
Dang'ara	158	118	145	52	13	66
Furqat	114	98	123	80	-9	18
Yozyovon	34	42	47	55	-13	-13


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-mart oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3065,5 ming so'mni tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga nisbatan 17,3 % ga o'sdi. Eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg'ona shaharda 4 236,0 ming so'mni, Qo'qon shaharda 3 523,0 ming so'mga to'g'ri keldi.

Yanvar-mart oylari davomida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi (ming so'mda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2023- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz ming so'mda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori miqdori moliya va sug'urta faoliyatiga to'g'ri kelib, 8 639,7 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich qurilishda 2 913,2 sanoatda 3 619,7 va ta'lim sohasida 2 600,9 ming so'mdan iborat bo'ldi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(yanvar-mart oylari qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming.so'mda)

	2022-yil	2023-yil	O'sish sur'ati %
Viloyat	2 613,1	3 065,6	117,3
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	3 536,6	4 236,0	119,8
Qo'qon	2 997,6	3 523,0	117,5
Quvasoy	2 534,2	2 987,4	117,9
Marg'ilon	2 256,6	2 652,5	117,5
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	1 864,6	2 166,7	116,2
Qo'shtepa	2 302,1	2 704,0	117,5
Bag'dod	2 344,5	2 608,4	111,3
Buvayda	1 905,7	2 428,6	127,4
Beshariq	1 934,7	2 185,6	113,0
Quva	2 153,6	2 385,5	110,8
Uchko'prik	2 003,5	2 393,2	119,5
Rishton	2 227,8	2 264,7	101,7
So'x	2 280,4	2 418,4	106,1
Toshloq	2 963,6	3 250,1	109,7
O'zbekiston	2 138,0	2 542,1	118,9
Farg'ona	2 071,0	2 386,9	115,3
Dang'ara	2 052,4	2 477,6	120,7
Furqat	2 236,5	2 609,5	116,7
Yozyovon	2 285,3	2 554,0	111,8

**** (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)**